O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI

IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMALARI. O‘QUVCHI-YOSHLARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI



Buxoro-2025 20-may

To‘plamga ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim paradigmalari, o‘quvchi-yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan tezis va maqolalar kiritilgan. Umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim paradigmalari, o‘quvchi–yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish istiqbollari, fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlashning ilmiy yo‘nalishlari, zamonaviy metodikalar va texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishga doir mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarni to‘plash, tajribalarni o‘rganish, aniqlash, ommalashtirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Ushbu to‘plam soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari, tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASI:

Yu.H.Haydarov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi, rais.

B.Ya.Axmedov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, a’zo.

U.A.Kosimov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi «Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari» kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi, a’zo.

V.I.Sadullayeva – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), a’zo.

Sh.B.Alimova – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, a’zo.

L.I.Jumayeva – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

M.I.Abdullayeva – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

M.I.Gadoyeva – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo.

Sh.R.Astanov – Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, a’zo.

Mas’ul muharrir:

Yu.H.Haydarov “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

B.I.Mustafoev BuxDU pedagogika fanlari nomzodi, professor.

H.S.Murodov Buxoro davlat pedagogika instituti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent.

To‘plam Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi ilmiy kengashi tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan (2025-yil 25- maydagi 3-son yig‘ilishi bayonnomasi).

O‘QUVCHI-YOSHLARDA KOLLOBORATSIYA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA UNINNG AHAMIYATI

Abduraimov Sherali No‘monjonovich
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarda XXI asr ko‘nikmalaridan biri bo‘lgan kollaboratsiya - jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish tartibi hamda uning ahamiyati ifoda etilgan. “Kollaboratsiya” tushunchasi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, interaktiv usullar, pedagogik texnologiyalar, guruhlar, maxfiy guruh, pedagogik usul, kolloboratsiya, jamoaviylik.

Аннотация. В статье описывается процесс и важность развития у современной молодежи умения работать в команде, одного из навыков XXI века. Понятие «сотрудничество» проанализировано с научной точки зрения.

Ключевые слова: образование, воспитание, интерактивные методы, педагогические технологии, группы, секретная группа, педагогический метод, сотрудничество, командная работа.

Annotation. This article describes the procedure for developing the ability to work in a team, one of the skills of the 21st century, in young people today, and its importance. The concept of "collaboration" is analyzed from a scientific point of view.

Keywords: education, upbringing, interactive methods, pedagogical technologies, groups, secret group, pedagogical method, collaboration, teamwork.

Kirish

Mamlakatimiz taraqqiyoti va taqdiri maktablardagi yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga bevosita bog‘liq. Ta’lim-tarbiya ishlarini yanada yuqori sifat bosqichiga olib chiqish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Darslar jarayonida innovatsion yondashuvlar asosida interaktiv usullardan

foydalanish samaradorlikni oshiradi. Sinf o‘quvchilarini dars avvalida kichik guruhlarga yoki bir necha guruhlarga ajratib olish bugungu kunda ijobiy samara bermoqda.

Mavzuning dolazarbligi va ahamiyati. Sinf o‘quvchilarini guruhlarga taqsimlash o‘z-o‘zidan musobaqa, bellashuvni yuzaga keltirish uchun sabab bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarda jamoaviylik, bir-birini nazorat qilish, ahillik, hamjihatlikni shakllantiradi. Shu bilan birga ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatini ham singrirish lozim [1.4-modda]. Guruhlarga taqsimlash kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantiradi, o‘quvchilar guruhda bemalol fikrini ayta oladi; kommunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Davlat tomonidan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish ham belgilab berilgan. [2.1-band]

Bugung kunda bu yondashuv 4 K modeli asosida yondashuv deb qaralmoqda. 4K modeli - XXI asr ko‘nikmalarini har bir o‘quvchida shakllantirishga xizmat qilmoqda. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga qamrab oladi:

1-yondashuv. Kollaboratsiya (O‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik qilishi): barcha darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

2-yondashuv. Kommunikativlik(O‘quvchilarning o‘zaro muloqoti): o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, erkin, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga hamda tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadi.

3-yondashuv. Kreativ fikrlash(O‘quvchilarning ijodiy fikrlashi): o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi,

innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

4-yondashuv. Kritik (O‘quvchilarning tanqidiy yondashuvi) fikrlash: ushbu tamoyil o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Kollaboratsiya – jamoaviylikni rivojlantirishning bir necha usullari mavjud:

1.Jamoaviy loyihalar: O‘quvchilarni turli guruhlarga bo‘lgan holda, ularning birgalikda loyiha ustida ishlashga jalb qilinishi. Bunda o‘quvchilarga hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi hamda jamoada samarali ishlashni rivojlantiradi.

2.Guruh muhokamalari: O‘quvchilarga o‘zaro fikr almashish, turli g‘oyalarni qabul qilish va bir-birini tushunishga o‘rgatish. Guruh muhokamalari orqali kollaboratsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

3.Guruh ichida rollarni taqsimlash: Har bir o‘quvchiga ma’lum bir rol berish, masalan, jamoaning rahbari, yozuvchi yoki tahlilchi bo‘lish. Bu o‘quvchilarga jamoada o‘z mas'uliyatini tushunishga yordam beradi.

4.Guruhga yaratilgan vazifalarni yechish: Jamoaviy ishlash va muammolarni guruh bo‘lib hal qilish usullari kollaboratsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Har bir o‘quvchi o‘z g‘oyasini kiritish orqali umumiy maqsadga erishishga intiladi.

Ko‘rib turganingizdek, kollaboratsiyani rivojlantirishda asosiy ish o‘quvchilarini guruhlarga taqsimlash ko‘zda tutilmoqda. Shuning uchun guruhlarga taqsimlash usul haqida kengroq to‘xtalib o‘tamiz. Albatta guruhga taqsimlash orqali dars jarayonlarini amalga oshirayotganimizda tanlayotgan pedagogik usulda o‘quvchilar sonini hisobga olishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga ko‘ra, umumta’lim muassasasining sinflari

to‘liqligi 35 nafardan ortib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi[3. 28-band]. Biz shundan kelib chiqib, sinfda ko‘pi bilan 34 nafar o‘quvchilar jamoasini guruhga taqsimlashimiz kerak. Odatda pedagogik usullarning ko‘pida o‘quvchlarning 20-25 nafar bo‘lishi me’yor sifatida belgilangan. Biz esa pedagogik usulni tanlayotganimizda shuni ham e’tiborga olishimiz kerak. Undan tashqari, guruhlarga taqsimlashda e’tiborga oladigan jihatlarni tushuntirib o‘tishimiz muhim. 34 nafar o‘quvchilarni stollar joylashuviga ko‘ra uch guruhga ajratishda: 1-qator, 2-qator, 3-qator. Agar stollar 4 qator tizilgan bo‘lsa 4-qator kabi guruhlarga ajratishimiz mumkin. Bu holatda o‘quvchilar stollari joyida qoladi, xonada o‘zgarish qilinmaydi. Bu eng oson va keng foydalanadigan usul. Qatorlarga mavzu nomidan kelib chiqib nom berilsa va taxta ko‘rgazmalardan foydalangan holda tashkil etishni tavsiya etamiz. Guruhlarga taqsimlab olgach, albatta o‘quvchilardan birini yordamchi qilib olish ijobiy samara beradi. Navbatchi o‘quvchi, iqtidorli o‘quvchi yoki avvalgi darsda g‘olib bo‘lgan guruhning eng faol vakilini yordamchi qilib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki yordamchi bo‘lishni ko‘pchilik o‘quvchi xohlaydi. Bunday tanlovni o‘qituvchi avvaldan ogohlantirib qo‘yishi kerak.

Biz taklif qilayotgan usul: “Maxfiy guruh” usuli. Bu usulda ishlash orqali shartli 3 ta bosqichni bosib o‘tish mumkin.

1-bosqichda O‘quvchilarni guruhga taqsimlash uchun maxsus tarqatmalardan foydalaniladi. 1,2,3 raqamlar yozilgan kartochkalarni aralashtirib, barcha o‘quvchilarga tarqatish. Kartochkalarda guruhlar teng taqsimlanadi. Masalan 30 nafar o‘quvchi bo‘lsa har bir raqamdan 10 tadan tayyorlangan bo‘lishi shart. A’lochi, topqir o‘quvchilarni bir guruhga tushib qolishini oldini olish uchun alohida maxsus belgi orqali sezdirmay tarqatish ham muhim. Kartochkalar har bir o‘quvchini daftari yoki kitobi orasiga o‘qituvchi tomonidan joylab chiqiladi. O‘quvchi qaysi raqam tushgan bo‘lsa ham, uni hech kimga ko‘rsatmasliklari kerak.

Shu bilan 1-ishni amalga oshirdik.

2-bosqichda savollar beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun o‘quvchiga ball kartochkasi berib boriladi. Ball kartochkasini olgan o‘quvchi dars yakuniga qadar to‘plab boradi. Ball kartochkasini tayyorlashda hamma darslarda har xil kartochkalalardan foylansa yanada qiziqarli bo‘ladi. Masalan, mavzuga mos atama, rasmlar, so‘zlar, hikmatlarni kartochkada aks ettirish mumkin.

3-bosqich:Darsning yakunida o‘qituvchi tomonidan maxfiylik kartochkalari va ball kartochkalarini tekshirish va yig‘ib olish jarayoni. O‘qituvchi maxfiylik kartochkalarini tekshirish barobarida o‘quvchilardan ball kartochkalarini yig‘ib oladi, yordamchi sifatida o‘quvchilardan biri 3 ta guruhning ballarini doskada yozib boradi. O‘qituvchi esa e’lon qilib boriladi. Barcha o‘quvchilardan maxfiylik kartochkalari ham ball kartochkalari ham yig‘ib olinadi. Umumiy natija e’lon qilinib, g‘olib jamoa nomi e’lon qilinadi. G‘olib jamoa ishtirokchilari o‘rnidan turib oshkor etiladi.

O‘quvchilar bunday guruhlash usuliga ko‘pi bian 2 marta dars jarayonida o‘rganib, moslashib oladi. Bu usul har safar turli jamoadoshlarni tadim etadi, zerikib qolishmaydi.

Xulosa.

Ushbu usul orqali o‘quvchilarning eng muhim kompetensiyalardan biri bo‘lgan kolloboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatnii o‘sib boradi. Har safar kutilmagan voqealar, qiziqarli musobaqalarni taqdim etadi, sabr-toqatli bo‘lishga undaydi, bir-biriga nisbatab keskin agressiyani kuchaytirmaydi, tartib saqlanadi, shovqin xosil bo‘lmaydi. Bunday guruhga taqsimlashni o‘rgatgan pedagogdan esa yanada ko‘proq o‘z ustida ishlashni talab etadi. Bu ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi uchun foydali. Albatta, bu usul respublikamizdagi barcha pedagoglar uchun foydali deb hisoblaymiz. Bu usulni qo‘llashni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.Toshkent shahri.lex.uz

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida 06.04.2017 yildagi 187-son.lex.uz

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori.

4.O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005. -257 b.

5.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

TARIX FANINI O‘QITISHDA MANTIQIY –IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Axmedova Nilufar Allayorovna
Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tesisda tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning zarurati, bu boradagi zamonaviy yondashuvlar hamda pedagogik metodlar yoritilgan. Shuningdek, tarixiy tafakkurni rivojlantirishda o‘qituvchining roli va o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarix fanini o‘qitish, tarix darslari, mustaqil fikrlash, tarixiy tafakkur, muammo, tahlil, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В тезисе рассматривается необходимость развития логического и творческого мышления учащихся в процессе обучения истории, современные подходы и педагогические методы в этом направлении. Также рассматривается роль учителя в развитии исторического мышления и методы эффективной организации учебной деятельности.

3.O‘QUVCHI-YOSHLARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Sabirova Nasiba. Ta’lim tizimida 4 K modeli asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning afzalliklari……313

Samiyeva Shaxnoz, Aslanova Nozima. Hamkorlik ta’limi asosida o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari……320

Axmedov Ijod. Ta’limda sog‘lom raqobat muhitini yaratish orqali o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish……324

Tagayev Ganisher. O‘quvchilarda umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar kompetensiyasini 5E modeli asosida shakllantirish…….330

Haydarov Yuldash, Jumaqulov Najmiddin. Tarixni milliy ruhda yaratish va o‘rgatish o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim manba……334

Шоев Иззатулло. Формирование навыков XXI века в образовательно-воспитательном процессе……340

Sadullayeva Vazira. XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish: zamonaviy ta’limdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari…….347

Utayeva Feruza. Yoshlarda kasbiy ko‘nikmani hosil qilishda zardo‘zlik, to‘qimachilik, tikuvchilik sanoatining o‘rni……..351

Norova Malika. O‘quvchi –yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish…….355

Abduraimov Sherali. O‘quvchi–yoshlarda kolloboratsiya ko‘nikmalarini shakllantirish va uninng ahamiyati……361

Axmedova Nilufar. Tarix fanini o‘qitishda mantiqiy–ijodiy fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati……366

Abduxoliqova Dilbar. O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish……370

Alimova Shaxlo. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish–shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish mezoni sifatida……374

To‘rayeva Sayyora. O‘quvchi –yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish usullari……381

Abdullayeva Muxayyo. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning jamoada ishlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari……388